

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./NJR04326>
UDC: 343.144(045)(575.1)

SUD TERGOV AMALIYOTIDA PROTSESSUAL KELISHUVLARNI DIFFERENSIATSIYA QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Azimov Doniyor Esanovich,
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi,
Jinoyat ishlari bo'yicha Quyi Chirchiq tuman sudi sudyasi
ORCID: 0000-0002-2015-9663
e-mail: azimovd6880@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola sud tergov amaliyotida protsessual kelishuvlarni differentsiatsiya qilish muammolarini tahlil qilishga qaratilgan. Aybiga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv jinoyat protsessining istalgan bosqichida va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda prokuror hamda gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'rtasida tuziladigan kelishuvdir. Muallifning fikriga ko'ra, protsessual kelishuvning mohiyatini ayblanuvchining aybiga nisbatan munosabatiga bog'liqligi, ya'ni differensial yondashuv tashkil etadi. Aybiga iqrorlik haqida kelishuvdan qat'i nazar, sudyaning ishdagi mavjud dalillarni tekshirish va ularga baho berish majburiyati jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida kelishuv tuzishga majbur qilingan aybsiz shaxslarning hukm qilinmasligini ta'minlashga qaratilgan muhim kafolatdir. Shuningdek, maqolada protsessual kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniq belgilash zaruriyati ochib berilgan va asoslantirilgan. Bundan tashqari, maqolada protsessual kelishuv shakllarini differentsiatsiya qilishning mezonlari ham tahlil qilingan. Muallif protsessual kelishuvning aybiga iqrorlik haqida protsessual kelishuv, yarashuv haqida protsessual kelishuv, tergov bilan hamkorlik haqida kelishuv kabi shakllarini o'zaro qiyosiy o'rgangan. Xorijiy mamlakatlar va turli huquqiy tizimlarda sud tergov amaliyotida protsessual kelishuvlarni differentsiatsiya qilish muammolari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: protsessual kelishuv, aybiga iqrorlik, dalillarni taqdim etish, differentsiatsiya, shikoyat berish, sud muhokamasi predmeti.

ПРОБЛЕМЫ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ И УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ СОГЛАШЕНИЙ В СУДЕБНО-СЛЕДСТВЕННОЙ ПРАКТИКЕ

Азимов Дониёр Эсанович,
судья Куйичирчикского районного суда
по уголовным делам, самостоятельный соискатель
Высшей школы судей при Высшем судейском совете
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проанализированы проблемы разграничения процессуальных соглашений в практике судебного следствия. Мировое соглашение – это соглашение между прокурором и подозреваемым, обвиняемым или подсудимым на любой стадии уголовного судопроизводства и в иных случаях, предусмотренных законом. По мнению автора, суть процессуального соглашения заключается в отношении обвиняемого к своей вине, то есть дифференцированный подход. Обязанность судьи по исследованию и оценке имеющихся в деле доказательств, независимо

от заключения соглашения о признании вины, является важной гарантией недопустимости осуждения невиновного лица, вынужденного заключить соглашение о признании вины в результате оказанного на него физического или психологического давления. Также в статье раскрыто содержание и сделано обоснование необходимости четкого определения обстоятельств, подлежащих установлению в случаях, когда заключено процессуальное соглашение. В статье также анализируются критерии дифференциации форм процессуального соглашения. Автором произведен сравнительный анализ форм процессуального соглашения, таких как процессуальное соглашение о признании вины, процессуальное соглашение о примирении, соглашение о сотрудничестве со следствием. Исследованы проблемы дифференциации процессуальных соглашений в практике судебного расследования зарубежных стран и различных правовых систем.

Ключевые слова: процессуальное соглашение, дифференциация, обжалование, предмет судебного разбирательства.

ISSUES OF DIFFERENTIATION AND IMPROVEMENT OF PROCEDURAL AGREEMENTS IN JUDICIAL AND INVESTIGATIVE PRACTICE

Azimov Doniyor Esanovich,

Independent researcher of the Higher School of Judges,
Judge of the Kuyi Chirchik district court on criminal cases

Abstract. This article aims to analyze the problems of differentiation of procedural agreements in the practice of judicial investigation. A plea agreement is an agreement made between the prosecutor and the suspect, the accused, or the defendant at any stage of the criminal proceedings and in other cases provided by law. According to the author's opinion, the essence of the procedural agreement is its dependence on the accused's attitude towards his guilt, that is, a differential approach. Regardless of the plea agreement, the judge's obligation to examine and evaluate the available evidence in the case is an important guarantee aimed at ensuring that innocent persons forced to enter into a plea agreement as a result of physical or mental coercion are not convicted. The article also explains and substantiates the need to clearly define the circumstances that must be determined in cases where a procedural agreement has been concluded. The article also explains and substantiates the need to clearly define the circumstances that must be determined in cases where a procedural agreement has been concluded. The article also analyzes the criteria for differentiating the forms of a procedural agreement. The author made a comparative analysis of the forms of a procedural agreement, such as a procedural agreement on the admission of guilt, a procedural agreement on reconciliation, an agreement on cooperation with the investigation. The problems of differentiation of procedural agreements in the practice of judicial investigation of foreign countries and various legal systems are investigated.

Keywords: procedural agreement, guilty plea, presentation of evidence, differentiation, appeal, subject of trial.

Kirish

Hozirgi kunda jinoyat sudlov ishlarini yuritishni soddalashtirish, differentsiatsiyalash, ishlarni yuritishning dastlabki asoslarini qisqartirishga intilish barcha davlatlarga xos bo'lgan xususiyatdir. Unda ko'rib chiqilayotgan jinoyatning og'irligi, murakkabligi, ish ko'rib chiqilganidan so'ng kelib chiqadigan oqibatlarni hisobga oladigan jinoyat-sudlov

ishlarini yuritishning shakllariga asoslanish kerak [1-b. 126].

A.V. Smirnov va K.B. Kalinovskiy jinoyat sud ishlarini yuritishda kelishuvning quyidagi shakllarini ajratgan: a) ayblov va himoya vakillari o'rtasida tuziladigan, ayblovni yengillashtirish evaziga aybga iqrор bo'lishdan iborat aybga iqrорlik haqida kelishuv; b) mediatsiya kelishuv – jabrlanuvchi va

aybliligi isbotlangan hamda yetkazilgan zararni qoplashga tayyor bo'lgan huquqbuzar o'rtasida uchinchi shaxslar (odatda jamoat birlashmalari yoki mediatsiya, probatsiyaning maxsus xizmatlari yoki sudning ruxsati bilan politsiya) vositachiligida tuziladigan kelishuv; d) sud jarayonini qisqartirish haqida kelishuv [2-b. 220].

Sud ishlarini yuritish shakllarini differentsiatsiya qilish jinoyatning og'irlik darajasi, uni tergov qilish va hal qilishning murakkabligini hisobga oluvchi jinoyat sud ishlarini yuritishning eng maqbul shaklini izlash sifatida jahon tajribasiga azaldan ma'lum.

Protsessual shaklning differentsiativligi jinoyat-protsessual qonunida jinoyat ishlari yurituvining differentsiyalashgan shakllari ham mustahkamlanganligida ko'rinadi [3-b. 25].

D.K. Kanafinning fikriga ko'ra, kelishuvning aybga iqrorlik, hamkorlik, sud ishlarini yuritishning soddalashtirilgan shaklini qo'llash, taraflarning yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish haqida kelishuv shakllari mavjud [4-b. 7]. Fikrimizcha, protsessual kelishuvning quyidagi shakllari farqlanadi: aybga iqrorlik, yarashuv va tergov bilan hamkorlik. Aybga iqrorlik haqida kelishuv va hamkorlik haqida kelishuvni differentsiatsiya qilish asosi uning maqsadi bo'lib, aybga iqrorlik haqida kelishuv protsessual shaklni soddalashtirishga qaratilgan bo'lsa, hamkorlik haqida kelishuv jinoyatni ochish va ishning barcha holatlarini aniqlashga qaratilgan.

Protsessual kelishuv shakllarini differentsiatsiya qilishning bosh mezonini bo'lgan kelishuvning predmeti yuzasidan ilmiy adabiyotlarda turli fikrlar mavjud.

Jumladan, V.V. Gorskiy va M.V. Gorskiyning fikricha, kelishuv predmeti uning shartlarini bajarish doirasida ayblanuvchining harakatlari hisoblanadi [5-b. 113]. N.S. Kostenkoning fikriga ko'ra, kelishuv predmeti jinoiy javobgarlikni amalga oshirish shartlaridan iborat [6-b. 110–111]. M.M. Go-

lovinskiy esa kelishuv predmeti sifatida taraflarning hamkorligini amalga oshirish shartlarini muhokama qilish va gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) hamda ularning yaqinlari xavfsizligi kafolatlarini qayd qilgan [7-b. 83].

Protsessual kelishuvlarni amaliyotda qo'llash natijasida aniqlangan kamchiliklar ushbu kelishuvlarni bekor qilish zarurligini anglatmaydi, balki ularni yanada takomillashtirish, kelishuv haqida ishlarni yuritishda protsessual kafolatlarni kuchaytirish uchun asos bo'lishi zarur.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot ishi natijasida quyidagi masalalar tahlil qilindi: *birinchidan*, maqola sud tergov amaliyotida protsessual kelishuvlarni differentsiatsiya qilish muammolarini tahlil qilish; *ikkinchidan*, protsessual kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniq belgilash.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning JPKda belgilangan tartibining eng zaif tomoni mohiyat jihatidan boshqa-boshqa institut bo'lgan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv va tergov bilan hamkorlik haqida kelishuvga yagona institut sifatida yondashuvda namoyon bo'ladi. Aynan mazkur holat natijasida kelishuvning protsessual shartlariga protsessning turli bosqichlarida turlicha shartlar qo'yilgan.

Jumladan, JPKning 586¹-moddasida ko'zda tutilgan kelishuv shartlarida mavjud bo'lmasa-da, 586²-moddadagi iltimosnomada *jinoyatni tergov qilishga ko'maklashish, jinoyat natijasida olingan mol-mulkning topilishi uchun qaysi harakatlarni amalga oshirish shartligi, jinoyatga aloqador boshqa axborotni taqdim etishga doir majburiyatlari hamda jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar bartaraf etilganligi* ko'rsatilishi belgilangan.

JPKning 586⁵-moddasida esa aybga iqrordlik to'g'risidagi kelishuvda *sodir etilgan jinoyatni fosh etish, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovga ko'maklashganligini tasdiqlaydi va bu aynan nimada ifodalanganligini tushuntiradi.*

Ya'ni bu o'rinda jinoyatning ochilishiga faol ko'maklashganlik kelishuvning majburiy shartimi yoki yo'q, degan haqli savol tug'ildi. Agar qonun chiqaruvchi 62¹-bobda tergov bilan hamkorlikni majburiy shart sifatida ko'zda tutmagan bo'lsa, unda nima sababdan og'ir jinoyatlar kelishuv doirasiga tushishi belgilangan. Vaholanki, Kontinental Yevropa va MDHning barcha davlatlarida faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar aybga iqrordlik haqida kelishuv predmeti bo'lishi mumkinligi, og'ir jinoyatlar esa tergov bilan hamkorlik haqida kelishuv doirasiga tushishi belgilangan.

Sababi aybga iqrordlik haqida kelishuv protsessual kelishuvning eng keng qo'llanadigan turi bo'lib, tergov bilan hamkorlik haqida kelishuv faqatgina jinoyatni fosh etish va uni sodir etgan shaxslarni aniqlashning boshqa imkoniyati mavjud bo'lmagan holda, ya'ni favqulodda qo'llanishi maqsadga muvofiq. Aybga iqrordlik haqida kelishuvni og'ir jinoyatlarga nisbatan qo'llash protsessual kafolatlarining jiddiy kamayishi hisobiga sud xatolari va og'irroq oqibatlariga olib kelishi mumkin.

JPKning 586⁷-moddasiga ko'ra, sud aybga iqrordlik to'g'risidagi kelishuvga oid ishlarni ko'rib chiqish chog'ida:

kelishuvni tuzishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining protsessual huquqlari ta'minlangan-ta'minlanmaganligi va ushbu kodeksning 586¹-moddasida ko'rsatilgan talblar bajarilgan-bajarilmaganligi;

kelishuvning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda tuzilgan-tuzilmaganligi;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuvning mohiyati, uning shartlarini tushungan-tushunmaganligi, uning oqibatlarini anglab yetgan-yetmaganligi;

sudlanuvchi kelishuvni qo'llab-quvvatlashi yoki qo'llab-quvvatlamasligi;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yetkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko'rgan-ko'rmaganligini aniqlaydi.

Biroq JPKning 586⁹-moddasida kelishuvni tasdiqlashni rad etish haqida ajrim chiqarish va jinoyat ishini umumiy qoidalar bo'yicha tergov qilish yoki kelishuvni qayta ko'rib chiqish uchun prokurorga yuborish asoslari sifatida sud kelishuvda nazarda tutilgan sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovdagi jinoyatning malakalanishga taalluqli shartlarga rozi bo'lmashligi va sudlanuvchining aybdorligi borasida sudda asosli shubha tug'ilganligi ko'rsatilgan.

Ya'ni qonun chiqaruvchi JPKning 586⁷-moddasida aniqlash talab qilinmagan masalani kelishuvni tasdiqlashni rad etish asosi sifatida belgilagan.

JPKning 586⁶-moddasiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchining aybini tasdiqlash uchun yetarli hajmda dalillar to'playdi, ya'ni ishni sudga qadar yuritish bosqichida isbotlash predmeti o'zgarmaydi.

Biroq qonun chiqaruvchi tomonidan sud muhokamasi bosqichida isbotlash predmeti belgilab berilmaganligi, hukmning faqatgina kelishuv yoki aybga iqrordlik asosida chiqarilishini anglatadimi? Sudlanuvchining aybdorligi borasida sudda asosli shubha qanday mezonlar asosida aniqlanadi?

Agar qonun chiqaruvchi sudya dastlabki tergov tomonidan to'plangan yozma materiallar asosida alohida tartibda jinoyat-protsessual isbotlash faoliyatini amalga oshirishni nazarda tutgan bo'lsa, bu kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi protsessual faoliyatning qonuniyligi prezumpsiyasini anglatadimi?

Isbotlash predmeti belgilanmagan holda ayblov hukmi chiqarish tartibi nafaqat jinoyat protsessining umumiy prinsiplari, shu jumladan, dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish prinsipiga muvofiq emas.

Masalan, N.V. Redkinning fikricha, sud muhokamasining alohida tartibi jinoyat sud ishlarini yuritishda jinoyat protsessiga nomal'um bo'lgan sifat jihatdan yangi prezumpsiyalarning, shu jumladan, davlat ayblovchisi va himoyachi tomonidan o'z protsessual funksiyalarini vijdonan bajarilganligi haqida fikr, jinoyat ishida to'plangan dalillarning qonuniyligi haqida fikr, ayblanuvchiga e'lon qilingan ayblovning isbotlanganligi prezumpsiyasi, hukmning qonuniy, asosli va adolatli ekanligi prezumpsiyasi vujudga kelishiga olib keldi [8-b. 17].

Biroq, bizning fikrimizcha, A.V. Buligin mazkur prezumpsiyalar mavjudligini e'tirof etsa-da, "prezumpsiyalar sudyani jinoyat ishi materiallarini sudlanuvchining aybi isbotlanganligi masalasini hal qilish uchun o'rganish majburiyatidan ozod qilmaydi. Aksincha, qo'shimcha ravishda sudyaga mustaqil ravishda sudlanuvchining aybliligi haqida xulosaga kelish majburiyati yuklanadi. Sud muhokamasining alohida tartibida tartib soddalashtiriladi, biroq sudyaning dalillarni baholash va ish bo'yicha qaror qabul qilish yuzasidan fikrlash faoliyati soddalashtirilmaydi", degan fikrlari asosliroq [9-b.143].

Binobarin, sudyaning dalillarni tekshirish vositasidagi sodir etilgan jinoyat holatlari haqidagi bilimlarni to'plashning prezumpsiyalar vositasida almashtirilishi haqidagi fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Sababi protsessual kelishuv sudni dalillarni tekshirish majburiyatidan ozod qilmaydi, faqatgina dalillarni bevosita tekshirish emas, yozma dalillarni tekshirish tartibiga o'tiladi.

Bunday ish yurituvda sud muhokamasining asosiy prinsipi – bevositalik amal qilmaydi. Mohiyatan ayblov hukmi ayblanuvchining o'z aybiga iqrorligiga asoslanadi [10-b. 91].

Ayrim olimlar bunday holda ayblanuvchi va uning himoyachisiga isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning qisman ishonchli ekanligi, ya'ni isbot qilish talab qilmasligi haqida iltimosnoma berish huquqini berishni [11-b. 36] taklif qilgan.

Q.Q. Matkarimovning ayblanuvchi o'z aybiga iqror bo'lib, arz qilishiga yuridik kuch berish, agar bunday arz ixtiyoriy ravishda sud oldida qilingan bo'lsa va shak-shubha uyg'otmasa, jinoyat voqeasi va uni sodir etishda ayblanuvchining aybdorligini isbot qilingan deb e'tirof etish [12-b. 26] haqidagi fikri ham mazkur nuqtayi nazarga asoslangan.

Biroq ushbu fikrga ko'ra, sud qaror qabul qilishda dastlabki tergov organlari tomonidan taqdim qilingan dalillarga ishonishi zarur va bu sudlanuvchining aybini isbotlangan deb qabul qilishni anglatib, isbotlashda aybiga iqrorlikka asossiz ravishda hal qiluvchi kuch beradi va bu huquqni muhofaza qiluvchi organlarga garchi boshqa dalillar yetarli bo'lmasa-da, kafolatlangan ayblov hukmi chiqarilishiga erishish imkonini yaratadi. Natijada aynan aybiga iqrorlikni qo'lga kiritish uchun qiynoq holatlarining keng tarqalish xavfi yuzaga keladi. Ayonki, jinoiy ta'qib ostidagi shaxsning ixtiyoriyligi har doim shartli bo'ladi, chunki jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi organ va uning o'rtasidagi munosabatlar teng emas. Shu sababdan ishda mavjud dalillar bilan tanishmasdan va sodir etgan qilmishining jinoyat-huquqiy kvalifikatsiyasini tushunib yetmasdan aybiga iqror bo'lish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Kelishuv tuzishdan asosiy maqsad ish bo'yicha haqiqatni aniqlashdan voz kechish emas, aksincha, sodir etilgan jinoyat holatlari haqida jinoyat sodir etgan shaxsda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanib, haqiqiy holatlarini maksimal darajada qisqa mudat va resurslarni sarflagan holda aniqlashdan iborat. Ya'ni isbotlash nuqtayi nazaridan shaxsning iqrorligi emas, balki iqrorlik sababli olingan ma'lumotlardan kelib chiqib,

sodir etilgan jinoyat haqida obyektiv dalillarni to'plash ahamiyatliroq.

Shu sababli ishda shaxsning aybiga iqrorigining mavjudligi dastlabki tergovning to'liqligi va aybiga iqrorlikni tasdiqlashi zarur bo'lgan dalillar hajmiga ta'sir qilmasligi zarur. Sababi ishda mavjud dalillar yuzasidan dastlabki tergovning bahosi hamda sud tomonidan beriladigan baho jiddiy farq qilishi va bu ishning natijasiga ta'sir o'tkazishi mumkin.

Aybga iqrorlik haqida kelishuvdan qat'i nazar, sudyaning ishdagi mavjud dalillarni tekshirish va ularga baho berish majburiyati jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida kelishuv tuzishga majbur qilingan aybsiz shaxslarning hukm qilinmasligini ta'minlashga qaratilgan muhim kafolatdir. Kontinental huquq tizimiga kiruvchi aksariyat davlatlarda aybga iqrorlikning boshqa dalillardan ustun emasligi va sudyani isbotlash majburiyatidan ozod qilmasligi kelishuv haqidagi ishlarda ham amal qiladi. Biroq umumiy tartibdagi sud muhokamasidan farqli ravishda ushbu masala sudya tomonidan yakka tartibda hal qilinishi, isbotlash jarayonining sifatiga salbiy ta'sir qilishini inkor etib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, sudlanuvchi sodir etmagan qilmishiga turli sabablarga iqror bo'lishga majbur bo'lmaganligini sudya tomonidan tekshirish talab etiladi. Ayniqsa, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy holati buzilganligi sababli o'zini o'zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan, sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo'yicha aybga iqrorlikning ixtiyoriy va tashqi ta'sirlar bilan bog'liq emasligini aniqlash juda muhim. Masalan, Moldova JPKning 506-moddasida sudya ayblanuvchining aybiga iqrorigining ixtiyoriyligi va huquqlari ta'minlanganligi bilan birga, sud muhokamasida himoyachining pozitsiyasi sudlanuvchining pozitsiyasiga muvofiqligi, ko'rsatilgan yuridik yordamdan qoniqish hosil qilganligi, alkogolizm yoki giyohvandlikdan davolanganligi, shuningdek, ko'rilayotgan ish bo'yicha sudlanuvchiga aybiga iqror bo'lishi uchun va'da-

lar berilmaganligi, qandaydir tarzda aybga iqror bo'lishi uchun majburlanmaganligi, dalillar bilan tanishtirilganligini aniqlashi belgilangan. Albatta, bunday tartib protsessual kelishuvning asosiy maqsadi bo'lgan protsessual shaklni soddalashtirishga to'sqinlik qilishi mumkin, biroq aybga iqrorlikning ixtiyoriyligi masalasi protsessual kelishuvning markaziy qismi bo'lar ekan, ixtiyoriylikni ta'minlashning qo'shimcha protsessual kafolati sifatida aybga iqrorlikning ixtiyoriyligini aniqlashning aniq mezonlarini belgilash va Oliy sud Plenumi qarori bilan amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sud tergovi o'tkazilmasligi jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichining ahamiyatini yanada oshiradi. Sababi JPKning 395-moddasiga muvofiq, sudya jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi bilan qabul qilib olgach, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

- 1) ishni sudlovga tegishliligiga ko'ra o'tkazish to'g'risida;
- 2) ishni sudda ko'rish uchun tayinlash haqida;
- 3) dastlabki eshituv o'tkazish to'g'risida.

Protsessual kelishuv tuzilgan ishlar ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi bilan kelib tushishi inobatga olinsa, bunda dastlabki eshituv o'tkazish uchun monelik yo'q.

Biroq JPKning 405³-moddasida jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituvni o'tkazish uchun asoslar aniq belgilangan bo'lib, protsessual kelishuv tuzilgan ishlar yuzasidan dastlabki eshituv o'tkazish ular orasida ko'zda tutilmagan.

Sababi ishni jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichidayoq sudya sud muhokamasining soddalashtirilgan tartibi ishni hal qilish va ayblov hukmi chiqarish uchun yetarli ekanligiga ishonch hosil qilishi talab etiladi. Dastlabki eshituv o'tkazish orqali sudyaga kelishuvni tuzishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining protsessual huquqlari ta'minlangan-ta'minlanmaganligi va ushbu

kodeksning 586¹-moddasida ko'rsatilgan talablar bajarilgan-bajarilmaganligini aniqlash imkoniyati beriladi. Bundan tashqari, aynan mazkur bosqichda sud muhokamasini umumiy yoki soddalashtirilgan tartibda o'tkazish masalasi hal qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, dastlabki eshituv o'tkazish sud nazoratining shakli sifatida ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual normalarga amal qilinganligini tekshirish imkonini beradi. Ya'ni asosiy sud muhokamasida sudning vakolatlari qisqarishi, dastlabki sud muhokamasida dalillarni tekshirish va baholash orqali qoplanishi mumkin.

Sudya jinoyat ishi materiallari bo'yicha dastlabki tergov qonunga to'liq rioya etilgan holda amalga oshirilganligi, ishga oid barcha zarur holatlar to'liq va har tomonlama o'rganilganligi, ayblanuvchining huquqlarini ta'minlashga oid qonun talablariga rioya etilganligi, ayblanuvchiga nisbatan uning aybini yetarli darajada isbotlovchi va sudlanuvchi sifatida e'tirof etishga imkon beruvchi dalillar to'planganligi, unga nisbatan ishning sud muhokamasida mazmunan ko'rib chiqilishini aniqlashi lozim [13-b. 55].

Shuningdek, dastlabki eshituv o'tkazish chog'ida ham protsessual kelishuv tuzish imkoniyatining tushuntirilishi va bunday imkoniyat berilishi sudlarda ish hajmi kamayishi va protsessual kelishuvni taraflarning tengligi ta'minlangan bir sharoitda tuzish imkonini beradi.

Binobarin, protsessual kelishuv tuzilgan ishlar yuzasidan dastlabki eshituv o'tkazish, bir tomondan, sudlanuvchining o'z huquqini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirs, ikkinchi tomondan, sudning protsessual vositalari va protsessual qarorlarning sifatiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

R.F. Zinnatov to'g'ri ta'kidlaganidek, tortishuvga asoslangan sud ishlarini yuritishda ishni sud majlisiga tayyorlash jinoyat ishini qonun buzilishi holatlari bilan sudga yuborishga o'tib bo'lmas to'siqqa aylanishi lozim [14-b. 15].

Aksincha, O.N. Tisen ishni ko'rib chiqish cho'zilishi sababli aybga iqrorlik haqida kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha dastlabki sud muhokamasi o'tkazilishini asossiz deb hisoblaydi [15-b. 220].

Bundan tashqari, JPK mazmuniga ko'ra, protsessual kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha oqlov hukmi chiqarish mumkin emas. Sababi sud tergov o'tkazilmasligi ayblovi tomoniga isbotlash imkoni berilmaganligini anglatadi. JPKning 464-moddasiga ko'ra, jinoiy hodisa yuz bermaganligi, sudlanuvchi sodir etgan qilmishda jinoyat tarkibi mavjud emasligi, jinoyat sodir etilishiga sudlanuvchi daxldor emasligi oqlov hukmini chiqarish uchun asos bo'ladi. Mazkur holatlarni sud tergov o'tkazmasdan aniqlashning imkoni yo'q.

Shu sababdan MDHga a'zo ayrim davlatlarning JPKsida [9] sudning xulosalari ishning haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi asosi bilan hukm ustidan shikoyat qilishga yo'l qo'yilmasligi asosli emas. Sababi hukmning haqiqiy holatga to'g'ri kelmasligi asosi bilan shikoyat qilish huquqidan mahrum qilish odil sudlovning asosiy prinsiplariga muvofiq emas va sud xatosi tufayli shaxs asossiy ravishda hukm qilingan holatlarda uning huquqlari tiklanishiga to'sqinlik qiladi.

Xulosalar

Hozirgi vaqtda nafaqat O'zbekiston, balki dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda jinoyat ishlari yurituviga protsessual kelishuv institutini tatbiq qilish masalalari davr talabi bo'lib bormoqda. Oxirgi yillarda qabul qilinayotgan sud-huquq islohotlari bilan bog'liq davlat dasturlarida jinoyat ishlari yurituviga protsessual kelishuv institutini tatbiq qilish masalasi qo'yilayotganligi ham bejiz emas. Chunki jinoyat ishlari yurituviga protsessual kelishuv institutini tatbiq qilish masalalari samaradorligini oshirishda jinoyat-protsessual asoslar ham muhim o'rin tutib, uni takomillashtirmasdan turib, bu institut qo'llanishini kengaytirishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

REFERENCES

1. To'laganova G. Z. Jinoyat-protsessual qonunchilikni yanada takomillashtirish imkoniyatlari [Possibilities for further improvement of criminal procedural legislation]. Tashkent, TSUL, 2014, 125 p.
2. Smirnov A.V., Kalinovskiy K.B. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. St. Petersburg, 2009, p. 220.
3. Jinoyat-protsessual huquqi [Criminal procedural law]. General part. The team of authors. Tashkent, TSUL, 2017, 25 p.
4. Reformirovaniye ugolovnogo protsessa Respubliki Kazakhstan [Reforming the criminal process of the Republic of Kazakhstan]. *Proceedings of the Legal Policy Research Center*, Almaty, 2014, p. 7.
5. Gorskiy V.V., Gorskiy M.V. Dosudebnoye soglasheniye o sotrudnichestve s pozitsiy obespecheniya prav uchastnikov ugolovnogo sudoproizvodstva (otdel'nyye problemy) [Pre-trial agreement on cooperation of positions to ensure the rights of participants in criminal proceedings (separate problems)]. Pre-trial agreement on cooperation (legal and forensic problems). *Proceedings of scientific and practical conference*. Voronezh, 2010, no. 6, p. 113.
6. Kostenko N.S. Dosudebnoye soglasheniye o sotrudnichestve v ugolovnom protsesse: pravovyye i organizatsionnyye voprosy zaklyucheniya i realizatsii [Pre-trial agreement on cooperation in criminal proceedings: legal and organizational issues of conclusion and implementation]. PhD thesis. Volgograd, 2013, pp. 110–111.
7. Golovinskiy M.M. Dosudebnoye soglasheniye o sotrudnichestve: normativno-pravovoye regulirovaniye i praktika primeneniya [Pre-trial agreement on cooperation: legal regulation and practice of application]. PhD thesis. Vladimir, 2011, p. 83.
8. Red'kin N.V. Osoby poryadok sudebnogo razbiratel'stva v sisteme ugolovnogo protsessa RF [Special order of trial in the system of criminal procedure of the Russian Federation]. PhD thesis. Krasnodar, 2007, p. 17.
9. Bulygin A.V. Osnovaniya rassmotreniya ugolovnogo dela i osobennosti dokazyvaniya pri sudebnom razbiratel'stve v poryadke glavy 40 UPK RF [Grounds for the consideration of a criminal case and features of proof in court proceedings in the order of chapter 40 of the Code of Criminal Procedure of the Russian Federation]. PhD thesis. Yekaterinburg, 2013, p. 143.
10. Yakimovich Yu.K. Ponyatiye, naznachenkiye, differentsiatsiya ugolovnogo protsessa [The concept, purpose, differentiation of the criminal process]. *Principles of criminal justice*. Tomsk, 2015, p. 91.
11. Grankin K.B., Komarov V.B. Uproshchennaya protsedura sudebnogo razbiratel'stva nuzhdayetsya v sovershenstvovanii [The simplified procedure of the trial needs to be improved. Improving the activities of law enforcement agencies to combat crime in modern conditions]. *Proceedings of the international scientific-practical conference*, Tyumen, 2010, iss. 7, part 2, p. 36.
12. Matkarimov Q.Q. Jinoyat ishlari yurituvini insonparvarlashtirish [Humanization of criminal proceedings]. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2020, p. 26.
13. Rahmonova S.M. Dastlabki sud muhokamasi ishni sudda ko'rish uchun tayinlash shakli sifatida [Preliminary hearing as a form of appointment for hearing the case in court]. Tashkent, MIA Academy, 2018, p. 55.
14. Zinnatov R.F. Realizatsiya sudebnoy vlasti na stadii podgotovki dela k sudebnomu zasedaniyu v sovremennom rossiyskom ugolovnom sudoproizvodstve [Implementation of the judiciary at the stage of preparing a case for a court hearing in modern Russian criminal justice]. Izhevsk, 2006, p. 15.
15. Tisen O.N. Teoreticheskiye i prakticheskiye problemy instituta dosudebnogo soglasheniya i sotrudnichestva v rossiyskom ugolovnom sudoproizvodstve [Theoretical and practical problems of the institute of pre-trial agreement and cooperation in Russian criminal proceedings]. Orenburg, 2017, p. 220.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 1-SON

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 24.02.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 19,30 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 11.

TDYU tipografiyasida chop etildi.